

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYIY KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHLATLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

CHANGES IN THE MEDICAL SYSTEM IN THE CITIES OF THE FERGANA VALLEY (1917-1990)

Mansurov Ulug'bek Umarovich,

University of Business and Science

Associate Professor of the Department of Social Sciences, (PhD)

Abstract. This article analyzes the outbreak of various infectious diseases among the population as a result of economic hardship in the cities of the Fergana Valley, measures taken to prevent it, a healthy lifestyle among the population, sanitary and hygienic rules, promotion of medical culture, as well as timely treatment of diseases widespread in cities.

Keywords: healthcare, cities, sanitary and hygienic rules, medical culture, infectious diseases, standard of living of the population, Soviet power, hospitals, shortage of medicines, military-political struggles, economic hardship, population demography, medical system.

FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)

Mansurov Ulug'bek Umarovich,

University of Business and Science

Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi shaharlarida iqtisodiy tanglik oqibatida aholi o'rtasida turli yuqumli kasalliklarni avj olishi, uni oldini olish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, sanitariya-gigiyena qoidalari, tibbiy madaniyatni targ'ib etish, shuningdek, shaharlarda keng tarqalgan kasalliklarni o'z vaqtida davolash ishlari kabi masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, shaharlar, sanitariya-gigiyena qoidalari, tibbiy madaniyat, yuqumli kasalliklar, aholining turmush darajasi, sovet hokimiyati, shifoxonalar, dori-darmon yetishmasligi, harbiy-siyosiy kurashlar, iqtisodiy tanglik, aholi demografiyasi, tibbiyot tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N01>

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi keskin harbiy-siyosiy kurashlar sharoitida Farg'ona vodiysining shahar aholisi hayotida ijtimoiy muammolar keskinlashib ketdi. Bu jarayonlarda yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik oqibatida aholi o'rtasida turli yuqumli kasalliklar avj olib, aholi o'rtasida sanitariya-gigiyena qoidalari, sog'lom turmush tarzi, tibbiy madaniyatni targ'ib etish, kasalliklarni o'z vaqtida davolash ishlari e'tibordan chetda qoldi. O'lkada shifokor mutaxassislarning yetishmasligi, aholi turmush darajasining pastligi bois ular o'rtasida turli xil kasalliklar keng tarqalgan edi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1917-yilda O'zbekiston hududida 128 ta shifokor bo'lib, Farg'ona viloyatida esa har 50.000 kishiga bitta shifokor to'g'ri kelar edi

[1. 15-b.]. Shifokorlar hamda kasalxonalarining yetishmasligi avvalgi mustabid tuzumdan meros edi.

Masalan, XX asr boshlarida Namangan shahrida 15 o'rinli bitta kasalxona bo'lib, 2.330 kishiga bir o'rin to'g'ri kelar, jami kasallarga 2 nafar shifokor, 4 feldsher va bitta dorishunos xizmat ko'rsatar edi [2. 92-b.]. Qishloqlarda yashovchi aholi esa tibbiy xizmatdan deyarli foydalana olmagan. Buning natijasida o'lkada vabo, chechak, bezgak va boshqa ko'plab yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi demografiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

1914-yilga kelib shifoxonadagi oddiy aholi uchun o'rinlar soni 30 taga yetgan. Ammo shifokorlar soni 4 taga tushib qolgan [3. 2-b.]. Kasalxonaning ahvoli ayanchli darajada bo'lib, sanitariya-gigiyena talablariga javob bermagan, tibbiyot anjomlari yetishmagan, xonalar sovuq ahvolda bo'lgan. 1917-yilga kelib kasalxonada ishlovchi shifokorlar soni 3 nafarga yetgan 10 ta qo'shimcha joylar tashkil etilib, 30 tasi erkaklar va 10 tasi ayollarga ajratilgan. Shahar kasalxonasida bemorlar shifokor qabuliga har kuni qatnab davolanar edilar. Bu yerda bir yil davomida mahalliy aholi vakillaridan 10.000 kishigina foydalana olgan.

1918-yilda Namangan viloyatida ham M. G'aniyev boshchiligidagi sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etilgan. Namangan shahridagi kasalxonada keyingi yillarda o'rinlar soni ko'payib, 60 o'rin erkaklarga, 30 o'rin ayollarga, yana 30 o'rin yuqumli kasalliklarga ajratilgan. Shaharda 1 ta erkaklar ambulatoriyasi ochilgan [4. 399-b.]. Shaharning mahalliy aholi yashaydigan qismida ham davolanish punktlari ochilgan bo'lsa-da, shahardagi notinchliklar tufayli ish olib bormagan. Shahar kasalxonasida yuqumli kasallar uchun 14 o'ringa mo'ljallangan bo'lim mavjud bo'lsa-da, u yerga 27 kishi joylashtirilgan [5. 3-b.]. Kasalxonada o'rinlar soni va tibbiyot xodimlarining yetishmasligi tufayli yuqumli kasallikka chalingan 12 ta mahalliy aholi vakillari o'z uylarida davolanishga majbur bo'lishgan. Shaharda tarqalgan "o'lat" kasalligi oqibatida bemorlarning 50 % i qirilib ketayotganligi ta'kidlanadi [6. 82-b.]. 1919-yildan boshlab Namangan shahrida chechakka qarshi emlash guruhlari tashkil qilingan [7. 5-b.]. Biroq tibbiyot xodimlarini yetishmasligi tufayli emlash ishlari qiyinchilik bilan amalga oshirilgan.

1923-yilda Namangan shahrida kasalxonalar kamayib 2 ta qolgan. Shahardagi har ikkala kasalxona 50 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ularda 36 nafar tibbiyot xodimlari bemorlarga xizmat ko'rsatgan [8. 30-b.]. Kasalxonalarda yiliga o'rtacha 944 nafar bemor davolangan. Namangan shahridagi ambulatoriya esa 18 ta shtatdan iborat bo'lib, ularning 9 tasini tibbiyot xodimlari tashkil qilgan. Ambulatoriyada yiliga o'rtacha 32156 nafar bemorga tibbiy xizmat ko'rsatilgan.

1923-yilning o'rtalariga kelib Namangan shahrida 3 ta kasalxona bo'lib, ular terapevt, jarrohlik va yuqumli kasalliklar bo'limlaridan iborat bo'lgan [9. 10-b.]. Bundan tashqari, shaharda yana ikkita ambulatoriya ham mavjud bo'lgan. Shahardagi ambulatoriyaning birinchisi umumiy, ikkinchisi esa mahalliy ayollarga xizmat qilgan. Kasalxonalardagi terapevt va jarrohlik bo'limlari 50 ta, yuqumli kasalliklar bo'limi esa 30 ta o'ringa mo'ljallangan edi. Shahardagi ambulatoriyada 1923-yilning may oyida 920 nafar, mahalliy ambulatoriya esa 428 nafar bemorni qabul qilgan. Biroq Namangan shahridagi mavjud kasalxonalar qiyin sharoitda bo'lishiga qaramasdan, aholiga imkoniyat darajasida tibbiy xizmat ko'rsatishgan.

1924-yilda Namangan uyezdi hududida 6 ta kasalxona, 9 ta ambulatoriya, 2 ta ayollar va 3 ta bolalar bo'limlari, 12 ta feldsherlik punkti hamda 4 ta bezgakka qarshi stansiya ochilgan [10. 92-b.]. Shaharda esa 60 o'rinli kasalxona, 2 ta ambulatoriya bo'lib, u yerda 4 ta shifokor, 1 ta tish shifokori va 6 ta akusherka (doya) faoliyat ko'rsatgan [11. 2-b.]. Shuningdek, 20 o'rinli yuqumli kasalliklar kasalxonasi, shahar ambulatoriyasi, tish ambulatoriyalari bo'lgan.

1924-yilda Namangan shahar Sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etilib, unga P.Abdugodirov rahbar etib tayinlangan [12. 5-b.].

1918-yilda Skobelev (Farg'ona) shahrida 60 o'rinli ayollar va bolalar kasalxonasi, Eski Marg'ilonda esa mahalliy ayol va bolalar uchun 10 o'rinli kasalxona xizmat ko'rsatgan [13. 165-b.]. 1920-yilda Skobelev shahrining eski qismida ayollar uchun unchalik katta bo'lmagan bitta kasalxona faoliyat ko'rsatgan. Shu yili shaharda yana bitta tug'ruqxona va yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun "Kapli moloka" bo'limini ochishga harakat qilindi [14. 22-b.]. Biroq turar joy topilmaganligi oqibatida bunday reja amalga oshmay qolgan.

1918-yilda Turkistonning boshqa viloyatlarida bo'lganidek, Farg'ona viloyatida ham sog'liqni saqlash bo'limi tashkil etiladi [15. 55-56 betlar.]. Ushbu bo'limlar zimmasiga joylarda tibbiy xizmat tarmoqlarini yo'lga qo'yish, epidemiyalarning oldini olish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini tashkil etish, ona va bolalar salomatligini saqlash bo'yicha samarali ishlar olib borish yuklatilgan. 1918-yil noyabr oyidan boshlab Andijon-O'sh uyezd-shahar sog'liqni saqlash bo'limi tashkil qilinadi [16. 74-b.]. Bu yillardagi murakkab jarayonlarga qaramay, Farg'ona viloyati shaharlariga Rossiyadan ko'plab shifokorlar kela boshladi. Masalan, Andijon-O'sh uyezd-shahar sog'liqni saqlash bo'limining birinchi mudiri V. F. Shmidt, shifokorlardan I. B. Vovrijin, V. Yu. Voyevodskiy, K. P. Olifing, M. S. Ernest, N. A. Kinze, M. S. Goloshevskaya, N. Ya. Vasilevskiy, V. V. Kashurnikov kabilar Andijon shahriga kelib ishlaganlar [17. 74-b.]. Mazkur shifokorlar Farg'ona vodiysining turli shahar va qishloqlarida bo'lishib, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishgan.

1923-yilda Farg'ona shahridagi kasalxona 40 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ulardan 20 tasi yuqumli kasalliklar, 20 tasi esa oddiy kasalliklar bilan og'rikan bemorlar uchun edi. Shahar kasalxonasida 34 nafar xodim faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning 2 ta shifokor, 2 ta doya, 25 ta yordamchi xodimlardan iborat edi [18. 42-b.]. Kasalxonada kuniga o'rtacha 40 ga yaqin bemorlar statsionar tarzda davolangan. Shuningdek, kasalxona qoshida ambulatoriya va tish shifokori xonasi ham bo'lib, ularda har kuni 30-40 tacha bemor davolangan. Biroq kasalxonada aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda tibbiy jihozlar bilan ta'minlanish holati qoniqarli darajada bo'lgan. Bemorlar uchun zarur bo'lgan ko'rpa-to'shaklar, dori-darmonlar yetishmagan, issiq ovqatlar umumiy qozonda tayyorlanar edi. Kasalxonalar uchun viloyat sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan ajratilgan mablag' yetishmasdi. Kasalxona binosi ham ta'mirlanish holatida edi. Isitish pechlari ishlamas, elektr energiyasi va suv bilan ta'minlanish holati ayanchli ahvolda bo'lgan.

Farg'ona shahrida 1925-yilda 30 kishiga mo'ljallangan bitta shifoxona, sug'urta qilingan kishilar uchun ambulatoriya, bitta shahar ambulatoriyasi, ipakchilik fabrikasi qoshida bitta ambulatoriya faoliyat yuritgan. 1929-yilga kelib esa shaharda tibbiy muassasalar soni 24 taga yetgan [19. 239-b.]. Shuningdek, shahardagi 30 kishiga mo'ljallangan shifoxona kengaytirilishi natijasida, 75 kishiga xizmat ko'rsatila boshlanadi.

1923-yili Farg'ona viloyati shaharlarida 512 o'rinli 12 ta kasalxona, 142 ta o'rinli 7 ta uchastka kasalxonasi, 11 ta ambulatoriya, 1 ta shifokor ambulatoriya punkti, 14 ta feldsher ambulatoriya punkti hamda 1 ta tez tibbiy xizmat punkti aholiga xizmat qilgan [20. 38-b.].

Marg'ilondagi shahar kasalxonasi ham 15 o'rindan iborat bo'lgan [21. 380-b.]. Kasalxona alohida bo'limlarga ajratilmagan bo'lsada, ularning 5 ta o'rni mahalliy ayollar va bolalar uchun ajratilgan edi. Butun Marg'ilon shahri aholisi uchun bitta shifokor xizmat qilgan.

1923-yil 1-iyuldagi hisob-kitoblarga ko'ra, Farg'ona viloyatida aholining har 79011 nafariga bitta shifokor xizmati to'g'ri kelgan. Eski Marg'ilonda esa 25 o'rinli shahar kasalxonasi, 30 o'rinli bolalar uyi hamda shahar ambulatoriyasi mavjud bo'lgan.

1919-yil noyabrda Andijonning yangi shahar qismida shifokor N.A.Kinze yetakchiligidagi ambulatoriya ochilib, asosan, rusiyzabon aholi vakillari uchun xizmat qilgan. Ikkinchi ambulatoriya esa shifokor V.Yu.Voyevodskiy tomonidan 1920-yil 1-yanvarda tashkil etilgan. Ambulatoriya shaharning eski qismida joylashgan bo'lib, asosan mahalliy aholiga vakillariga xizmat qilgan [22. 43-b.]. 1920-yilda Andijonda 2 ta shahar kasalxonasidan tashqari aholiga 3 ta ambulatoriya, dorixona xizmat ko'rsatgan [23. 17-b.]. Shahardagi birinchi kasalxona 120 o'rindan iborat bo'lib, unda jarrohlik, terapiya va akusher-ginekologiya bo'limlari tashkil etilgandi. Mazkur kasalxona shahardagi eski binolarning birida joylashgan bo'lib, uning bir-biridan ajralgan 5 ta binosi, keng hovlisi, oshxonasi va omborxonasi bo'lgan [24. 379-b.]. Kasalxona binolarini yoritishda 5 ta elektr chiroqlari va kerosin lampalardan foydalanilgan. Oziq-ovqat ta'minot zaxirasi faqat kundalik mahsulotlardan iborat bo'lib, issiq ovqat kunda bir mahal tayyorlangan, kamquvvat bemorlarga vrach tavsiyasi asosida bir kunda bir stakan sut ham berilgan. Kasalxonada dori-darmonlar chegaralangan miqdorda bo'lib, ko'plab tibbiy buyumlar va dori-darmonlar yetishmagan.

1919-yilda Andijon shahar aholisiga shifokorlar Kossovskiy va Mashchikovichlar stomatologik yordam ko'rsatishgan. Bu davrda shifokor kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ham kun sayin ortib boradi. 1920-yilning 20-mayida Andijon shahrida rus shifokorlari yordamida 2-yillik akusher-ginekologik kurslar ochilib, ularga asosan 18-35 yosh oralig'idagi ayollar o'qishga qabul qilingan. Shu yilning sentyabr oyidan boshlab shaharda 2,5-yillik hamshiralar tayyorlaydigan maktab ham ochilgan [25. 74-b.].

1921-yilda Andijon shahrida 70 o'ringa mo'ljallangan tez tibbiy va bolalar kasalxonasi tashkil etilgan [26. 305-b.]. Shifokorlarning aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishida bir qator moddiy qiyinchiliklar, moddiy-texnika bazasining talab darajasida bo'lmaganligi, tibbiy anjom va uskunalarning yetishmasligi, malakali mutaxassislar yo'qligi jiddiy to'sqinlik qilgan. Bundan tashqari, stomatologiya xizmati Qo'qon, Namangan va O'sh shaharlaridagina yo'lga qo'yilgan bo'lib, boshqa hudud aholisiga bu masofaviy qiyinchiliklar ham tug'dirgan. Dorixonalarning yetishmasligi esa kasalliklarni o'z vaqtida davolashda jiddiy to'sqinlik qilgan.

1923-yilda Andijon shahridagi kasalxona olti bo'limdan iborat 75 o'rinli kasalxonaga aylantirilgan. Ammo shaharlarda sog'liqni saqlash muassasalaridagi keskin vaziyat o'zgarmay qolaverdi. Chunki shaharlarda tibbiy xizmat ko'rsatish va aholining turmush darajasi juda past edi. Farg'ona shaharlarida 1923-yilda 11 ta ambulatoriya mavjud bo'lib, unda 15 ta shifokor faoliyat yuritgan [27. 38-b.]. 1922-yilda 12 ta ambulatoriya, 34 ta shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 1923-yilga kelib 11 ta ambulatoriya va 15 ta shifokor qoldi.

1924-yilda Andijon shahar kasalxonasi 60 o'rinli bo'lib, unda terapiya, jarrohlik, tug'ruqxona va yuqumli kasalliklar bo'limlari bo'lgan [28. 38-b.]. Kasalxonada 1 ta terapevt, jarroh, 5 ta feldsher, 3 ta doya, 2 ta hamshira va 32 ta meditsina xodimlari faoliyat ko'rsatgan. Shu yilning 1-apreldan shahar kasalxonasi davolash mablag'i hisobiga ko'ra 60 o'rindan 70 o'ringa ko'paytirilgan. Shahar kasalxonasida kasallarni oziq-ovqati hamda zarur tibbiy dori-darmonlar bilan ta'minlanishi qoniqarli darajada bo'lgan. Shuningdek, Andijon shahrida 2 ta ambulatoriya ham bo'lib, ularning birinchisi shaharning yangi qismida joylashgan edi. Ambulatoriyada 3 ta shifokor xonasi bo'lib, u yerda davolovchi shifokor, bemorlarni ro'yxatga

oluvchi hamshira, feldsher, sanitar va tarjimon xizmat qilgan. Shaharning eski qismidagi ambulatoriyada esa shifokor, feldsher, akusherka xizmat qilgan. Har ikkala ambulatoriyaning ta'minoti zaxirasi qoniqarli bo'lsa-da, zarur bo'lgan tibbiyot anjomlari yetishmagan. Shuningdek, shaharda 2 ta ambulatoriya bo'lib, ularning birinchisi zavod qoshida tashkil etilgan, u yerda shifokor va feldsher xizmat qilgan, ikkinchisida esa faqat o'rta maxsus ma'lumotli feldsher xizmat qilgan.

Davolash-sanitariya muassasalari shoxobchalari va shifokorlar soni qishloq joylardagiga qaraganda shaharlarda tezroq ko'paydi. Shaharlarda bitta shifokorga 1926-1927-yillarda 1375 kishi, 1927-1928-yilda 1263 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, qishloq joylarida 1926-1927-yilda 46760 kishi va 1927-1928-yilda 33597 kishi to'g'ri kelgan [29. 293-b.]. Shifokorlarning aksariyati ko'pchilikni tashkil qilgan aholi tilida gaplasha olmagan, bu tibbiy yordam ko'rsatishga jiddiy zarar yetkazgan.

XX asr boshida Qo'qon shahrining yangi qismida 2 ta kasalxona va 1 ta ambulatoriya bo'lib, unda 4 nafar shifokor ishlagan. 1921-yilda shaharning eski qismida ham 2 ta kasalxona va ambulatoriya bo'lib, u yerda 2 nafar shifokor xizmat qilgan [30. 14-16 b.]. 1924-yilda Qo'qon shahrida 90 o'ringa mo'ljallangan kasalxona bo'lib, u jarrohlik, terapiya, ginekologiya va ko'z kasalligi bo'limlaridan iborat bo'lgan [31. 5-b.].

1924-yilda O'sh uyezdi aholisi 123132 kishini tashkil etgan. Shaharda 30 o'ringa mo'ljallangan kasalxona bo'lib, unda jarrohlik, terapevt, yuqumli kasalliklar, akusher-ginekologiya bo'limlari aholiga xizmat qilgan [32. 283-b.]. Shaharning yangi va eski qismlarida ham ambulatoriyalar bo'lib, har ikki muassasada bitta shifokor ishlagan.

Farg'ona vodiysi shaharlaridagi tibbiyot muassasalari va shifokorlar soni quyidagicha bo'lgan (1921-yil):

1.1. jadval

Hudud	Kasalxona		Ambulatoriya	Stomatologiya xonasi	Dorixona
	soni	o'rin			
Andijon shahri	2	100	2	-	1
Qo'qon shahri	4	170	4	2	2
Eski Marg'ilon shahri	1	15	1	-	-
Farg'ona shahri	2	40	3	-	1
Namangan shahri	3	90	1	1	1
O'sh shahri	1	30	1	1	1
Jami	13	445	12	4	6

Jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar vodiy shaharlarida tashkil etilgan tibbiy muassasalar son va sifat jihatdan tubdan farqlanganligini ko'rsatib turibdi. Xususan, eng ko'p kasalxonalar soni Qo'qon shahrida tashkil etilganligiga qaramasdan, bemorlar uchun ajratilgan joy jihatidan Andijon shahar kasalxonasi katta bo'lgan [33. 130-b.].

Farg'ona viloyati shaharlarida mavjud tibbiyot muassasalari (1922-yil 1-noyabr holati) [34. 203-b.]:

1.2. jadval

№	Shahar nomlari	kasalxonalardagi o‘rin
1	Qo‘qon	225
2	Andijon	82
3	Marg‘ilon	81
4	Namangan	70
5	O‘sh	30

Jadvalda keltirilgan statistik ma‘lumotlar bo‘yicha vodiylar shaharlarida tashkil etilgan kasalxonalarda bemorlarga ajratilgan joy bo‘yicha Qo‘qon shahri yuqori o‘rinda turgan.

Bu davrga kelib (1922-yil) Turkistonda sog‘liqni saqlash sohasidagi ahvol keskin edi. Bir yil ichida respublika bo‘yicha sog‘liqni saqlash komissarligi ma‘muriy organlar tarkibi 726 tadan 222 taga, yirik va kichik shifoxonalar soni 188 tadan 139 taga, ambulatoriyalar soni esa 237 tadan 33 taga keskin qisqarib ketgan [35. 170-173-b.]. Tibbiyot xizmatining yomonligi, yashash va mehnat qilish sharoitining og‘irligi tufayli, aholi o‘rtasida vabo, bezgak, traxoma, moxov va boshqa ko‘plab kasalliklar keng tarqalgan, bu kasalliklarga qarshi kurashishda ayrim hududlar aholisiga umuman tibbiy yordam ko‘rsatilmagan.

1922-yilda Farg‘ona viloyati Sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i tomonidan berilgan ma‘lumotga ko‘ra, viloyatda yuqumli kasallik nihoyatda ko‘payib ketgan. Bu holatni to‘xtatish uchun Skobelev (Farg‘ona), Namangan va O‘sh shaharlarida yuqumli kasalliklarni oldini olish bo‘yicha maxsus komissiya tuzilgan. Qo‘qon shahrida 300 o‘rinli, Skobelevda 100 o‘rinli, Andijon shahrida 40 o‘rinli, Namangan shahrida 30 o‘rinli va O‘sh shahrida 25 o‘rinli yuqumli kasalliklar uchun shifoxona tashkil etilgan [36. 22-b.].

1922-yilda Farg‘ona vodiysi shaharlarida faoliyat olib borgan tibbiyot xodimlarining soni quyidagicha bo‘lgan [37. 203-b.]:

1.3. jadval

Sohalari	Qo‘qon	Andijon	Marg‘ilon	Namangan	O‘sh	Jami	Viloyat bo‘yicha
Shifokor	15	5	4	5	2	31	34
Stomatolog	2	-	1	1	-	4	4
Dorishunos	30	7	5	5	5	50	79
Doyalar	8	1	3	1	2	15	20
Tibbiyot hamshirasi	12	5	3	4	3	27	28
Chechakka qarshi emlash	2	1	1	2	1	7	10
Xo‘jalik xodimi	134	51	43	66	26	380	426

Jadvalda keltirilgan statistik ma‘lumotlar bo‘yicha vodiylar shaharlarida tashkil etilgan tibbiyot muassasalarida shifokorlar soni bo‘yicha Qo‘qon shahri yuqori o‘rinda turgan.

Farg‘ona vodiysi aholisi orasida sanitariya maorifi, sanitariya-profilaktika, davolash ishlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi, shuningdek, aholi turmush darajasidagi qoloqlik, moddiy ta‘minotdagi nochorliklar oqibatida turli xildagi yuqumli kasalliklar soni

ko'payib ketadi. Arxiv hujjatlarida keltirilisha, 1929-yilda Farg'ona viloyatida 334 ta oila tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda ularning 194 tasida yuqumli kasalliklar aniqlangan [38. 2-b.]. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklar keng tarqalgan bo'lsa-da, ammo bu sohada davolash o'rinlari juda kam bo'lgan. 1928-yil respublika bo'yicha yuqumli kasalliklar uchun 320 o'rin ajratilib, shundan 33 tasigina Farg'ona viloyati hisobiga to'g'ri kelgan xolos [39. 113-b.]. Shu bilan birga bu yillardagi asosiy muammolardan biri tibbiyot kadrlarini yetishmasligi bo'lgan. 1927-yilda respublikamizda 935 nafar tibbiyot xodimi faoliyat yuritib, shaharlarda bitta vrachga 1.263 kishi, qishloqlarda esa 33.597 kishi to'g'ri kelgan [40. 113-b.]. Tibbiyot mutaxassislariga ehtiyoj ayniqsa Farg'ona va Buxoro viloyatlarida ancha yuqori edi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi 104 ta qishloq vrachlik uchastkalarida 52 nafar vrach yetishmas edi [41. 139-b.].

XX asrning birinchi choragida Farg'ona vodiysi shaharlarida shifoxonalar yetishmas edi. Shuning uchun ham shaharlarda ko'plab shifoxonalarni ochishga to'g'ri keldi. Shunday bo'lsada, yangi ochilgan shifoxonalarda ahvol achinarli darajada bo'lgan. Shifoxonalar maxsus jihozlangan binolarda emas, balki savdo muassasalari o'rniga joylashtiriladi. 1930-yillarning o'rtalariga qadar shaharlarda tibbiyot muassasalari qurish sust ravishda olib borilgan. Asosan shaharlarda shifoxonalarining qurilishi 1934-1939-yillarga to'g'ri keladi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan barcha sohalar faoliyati harbiy izga solinib, front ehtiyojlari uchun xizmat qilgan. Respublikamizda ham tibbiyot sohasi vakillari ham urushga safarbar etildi. Urush yillarida O'zbekistonga ham ko'plab shifoxonalar va tibbiyot xodimlari ko'chirib keltirildi. 1941-yilda Farg'ona viloyatida 16 ta [42. 97-b.], Andijon viloyatida 5 ta [43. 9-b.], Namangan viloyatida esa 19 ta harbiy gospitallar tashkil etildi [44. 6-b.].

Ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatda sanitariya-epidemiologiya xizmati ishini yo'lga qo'yish qiyinlashib bordi. Mamlakatda belgilangan chora-tadbirlarga qaramasdan aholi o'rtasida turli xil yuqumli kasalliklar soni ko'payib ketdi. 1942-yilda Namangan shahrida 565 kishi ich terlama bilan, 1327 kishi tepkili terlama bilan kasallangan [45. 12-b.]. Shuningdek urush yillarida respublikamizning deyarli barcha shahar va tumanlarida zaxm kasalligi ko'payadi. Masalan, 1944-yil Farg'ona shahrida 361 kishi, Qo'qon shahrida esa 354 nafar inson zaxm kasalligi bilan ro'yxatga olingan [46. 105-b.].

Urushdan keyingi yillarda ham sog'liqni saqlash muassasalari ishini yaxshilashdagi eng asosiy muammo – davolash o'rinlarini yetishmasligi bo'ldi. Masalan, 1953-yili Andijon viloyati shahar shifoxonasida ochilishi rejalashtirilgan 150 o'rindan 75 tasi ochiladi, xolos [47. 42-b.]. 1952-yilda Namangan shahar shifoxonasida ham davolash o'rinlari yetishmaganligi kuzatilgan. Bunga asosiy sabab shifoxonalardagi noqulay shart-sharoitlar, zarur buyumlarning yetishmasligi hamda oziq-ovqat ta'minotidagi kamchiliklar bo'lgan.

XX asrning 70-yillaridan boshlab O'zbekistonda sog'liqni saqlash muassasalari moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, takomillasha boshlaydi. Davolash muassasalari namunaviy loyihalar asosida qurilib, ularda tibbiyot xodimlari va bemorlar uchun qulay sharoitlar yaratila boshlaydi. Respublikamizning barcha yirik shaharlarida davolash maskanlari yangi andoza asosida bunyod etila boshlangan. Biroq, bu jarayonda ko'plab muammolar ham kelib chiqdi. Ko'p hollarda respublikamizda turli sabablarga ko'ra tibbiyot muassasalarini qurilish ishlari nihoyasiga yetmay qoladi. Bunga asosiy sabab sifatida qurilish ishlarini boshlash uchun yetarli loyiha-smeta ishlarini tashkil etilmaganligi, qurilishda ishchi kuchlarini va qurilish materiallarini yetishmasligi hamda moddiy mablag'ni tanqisligi bo'lgan.

Xulosa shuki, bu davrda Farg'ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy infratuzilmalar aholi ehtiyojlarini ta'minlay olmas, zamon talablariga javob bermas edi. Shaharlarda shifoxonalar yetishmas, yangi ochilgan sanoqli tibbiy muassasalarning ahvoli ham qoniqarsiz holatda edi. Chunki, binolar yetishmasligi sababli ko'pgina shifoxonalar maxsus jihozlangan binolarda emas, balki ular savdo yoki boshqa maskanlar o'rnida joylashgan edi.

Shaharlardagi asosiy muammolardan yana biri tibbiyot sohasidagi mutaxassislar yetishmas edi. Shu sababli keyinchalik shaharlarda bir qancha tibbiyot bilim yurtlari ochila boshladi va ularda kadrlar tayyorlanishga e'tibor berildi. Sovet hukumati shaharlarda yuqumli kasalliklarning oldini olish, ularni davolash uchun yetarli mablag' ajratmagan.

Mazkur maqolaga xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, bu davrda shaharlarning ijtimoiy infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish tizimi mutlaqo qoniqarsiz ahvolda edi. Xizmat ko'rsatish tizimi talab va ehtiyojlarni qondirmas edi. Bunday sharoitda an'anaviy shahar madaniyati tubdan izdan chiqib, chuqur inqirozga uchrab borardi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистан за 15 лет. Статистический сборник. – Ташкент., 1939. – С. 15.
2. Ro'ziboyev T., Hojimirzayev M. Namangan viloyati: Spravochnik. – Toshkent: O'zbekiston, 1981. – B. 92.
3. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 2-varaq.
4. O'zR MDA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 137-ish, 399-varaq.
5. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 3-varaq.
6. NVDA, 13-fond, 4-ro'yxat, 8-ish, 82-varaq.
7. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 5-varaq.
8. NVDA, 13-fond, 1-ro'yxat, 17-ish, 30-varaq.
9. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 207-ish, 10-varaq.
10. Ro'ziboyev T., Hojimirzayev M. Namangan viloyati... – B. 92.
11. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 2-varaq.
12. NVDA, 796-fond, 1-ro'yxat, 48-ish, 5-varaq.
13. Набиев Ф.Х. Проблемы и противоречие социальной политики в Туркестане (1917–1924 гг). Дисс.... док. ист. наук. – Т., 1995. – С. 165.
14. FVDA, 221-fond, 1-ro'yxat, 277-ish, 22-varaq.
15. Mo'minova G. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991-yillar). – Toshkent: Yangi-nashr, 2015. – B. 55-56.
16. Алиев М. М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине // Советское здравоохранение. – М.: Медицина, 1986. – №9. – С. 74.
17. Алиев М. М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине.... – С. 74.
18. FVDA, 435-fond, 1-ro'yxat, 239-ish, 42-varaqning orqasi.
19. O'zR MDA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 457-ish, 38-varaq.
20. O'zR MDA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 1130-ish, 380-varaq.
21. AVDA, 90-fond, 1-ro'yxat, 69-ish, 43-varaq.
22. Мухитдинов М., Хужаков А. Здравоохранение Андижанской области. – Ташкент: Медицина, 1985. – С. 17.
23. O'zR MDA, R.17-fond, 1-ro'yxat, 1130-ish, 379-varaq.
24. Алиев М. М. Роль русских врачей в развитии здравоохранения в Ферганской долине.... – С. 74.
25. AVDA, 59-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 305-varaq.
26. O'zR MDA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 457-ish, 38-varaq.
27. O'zR MDA, R.87-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 38-varaq.

28. O'zR MDA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 190 a-ish, 1416-varaqning orqasi.
29. O'zR MDA, R. 40-fond, 1-ro'yxat, 457-ish, 5-varaq.
30. Sredne-Aziatskiy meditsinskiy jurnal. T. 5. 6. Iyun. – T.: Tipografiya Vostokazgosizdat, 1924. – S. 283.
31. Otchyot Ferganskogo Oblastnogo Ekonomicheskogo Sovещaniya.... – S. 130.
32. O'zR MDA, R.25-fond, 1-ro'yxat, 1391-ish, 203-varaq.
33. Otchyot o deyatelnosti SNK Ekonomicheskogo Soveta Turk Respubliki. 1-oktyabr. – T., 1922. – S. 170–173.
34. O'zR MDA, R.40-fond, 1-ro'yxat, 317-ish, 22-varaq.
35. O'zR MDA, R.25-fond, 1-ro'yxat, 1391-ish, 203-varaq.
36. Shodmonova S.B. O'zbekiston shaharlarida transformatsiya jarayonlari (1917-1924-yillar). – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2015. –B. 239.
37. Xo'jayev F. O'zbekiston xalq xo'jaligi / Xo'jayev F. Tanlangan asarlar. II tom. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 293.
38. O'zRMA. 837-fond, 6-ro'yhat, 378-ish, 2-varaq.
39. O'zRMA. 837-fond, 3-ro'yhat, 490-ish, 113-varaq.
40. O'zRMA. 837-fond, 3-ro'yhat, 490-ish, 113-varaq.
41. O'zRMA. 837-fond, 32-ro'yhat, 2502-ish, 139-varaq
42. Mo'minova G.E. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917-1991-yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – B. 97.
43. Xodjakov A.X. Zdravooxraneniye Andijanskoy oblasti v гоdy Velikoy Otechistvennoy voyny // Meditsinskiy jurnal Uzbekistana. 1985. №.5. – S. 9.
44. Xotira. Namangan viloyati. 1-kitob. – Toshkent: 1994. – B. 6.
45. NVDA. 111-fond, 1-ro'yhat, 64-ish, 12-varaq.
46. Mo'minova G.E. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917-1991-yillar). – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – B. 105.
47. Andijon viloyat davlat arxivi. 607-fond, 1-ro'yhat, 44-ish, 42-varaq.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).